



# TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**



# TASHQI SAVDO AYLANMASI

✓ Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2023- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 5706,8 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 122,4 mln. AQSh dollariga yoki 2,2 % ga ko'paygan.






TSAda eksport hajmi 1858,2 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 91,0 %) va import hajmi 3848,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 108,7 %) yetdi. Hisobot davrida -1990,4 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

### TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar- dekabr, mln. AQSh dollari)



### TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar- dekabrga nisbatan,%da)





## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar- dekabr, mln.AQSH dollari)



**Xitoy**  
TSA-1520,7  
ulushi- 26,6%  
Eksport-466,6  
Import-1054,1



**Rossiya Federatsiyasi**  
TSA-1269,6  
ulushi-22,2%  
Eksport-561,8  
Import-707,8



**Qozog'iston**  
TSA-851,3  
ulushi-14,9%  
Eksport-104,7  
Import-746,6



**Turkiya**  
TSA-436,1  
ulushi-7,6%  
Eksport-253,9  
Import-182,2



**Braziliya**  
TSA-231,6  
ulushi-4,1%  
Eksport-0,0  
Import-231,6



**Italiya**  
TSA-156,1  
ulushi-2,7%  
Eksport-17,7  
Import-138,4



**Singapur**  
TSA-124,1  
ulushi-2,4%  
Eksport-51,7  
Import-72,4



**Germaniya**  
TSA-113,4  
ulushi-2,0%  
Eksport-9,2  
Import-104,2



**Belorussiya**  
TSA-107,0  
ulushi-1,9%  
Eksport-21,6  
Import-85,4



**Tojikiston**  
TSA-101,4  
ulushi-1,8%  
Eksport-48,0  
Import-53,4



**Qirg'iz Respublikasi**  
TSA-83,9  
ulushi-1,5%  
Eksport-45,3  
Import-38,6




**Afg'oniston**  
TSA-55,5  
ulushi-1,0%  
Eksport-54,1  
Import-1,4



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar- dekabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,8 %ni hamda o‘zgarish sur‘ati 2022- yilning shu davriga nisbatan 94,2 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 56,2 %ni (2022- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,5 %ni tashkil qilgan), o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 109,5 %ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI  
VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI  
(2023- yil yanvar- dekabr, % hisobida)**




## TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI



MDH davlatlaridan Armaniston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Singapur, Niderlandiya davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






## TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2023- yil yanvar- dekabr)



Hozirgi kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab- quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2023- yil yanvar-dekabr oyi yakuni bilan 1858,2 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2022- yilning shu davriga nisbatan 91,0 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,7 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (62,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,7%), turli xil tayyor buyumlar (13,1 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,2 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (4,1 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (3,3 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)
- Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabilar
- Hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI  
(2023-yil yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>1731,6</b>	<b>764,6</b>	<b>967,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>shu jumladan:</b>						
<b>oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	236,4	118,7	117,7	12,7	14,4	11,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>	7,3	6,8	0,5	0,4	0,8	0,0
<b>Nooziq-ovqatxom-ashyosi (yoqilg‘idantashqari)</b>	59,5	23,1	36,4	3,2	2,8	3,5
<b>Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar</b>	9,2	2,5	6,7	0,5	0,3	0,7
<b>Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar</b>	2,9	0,1	2,8	0,2	0,0	0,3
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar</b>	76,9	64,5	12,4	4,1	7,8	1,2
<b>Sanoat tovarlari</b>	1156,0	323,5	832,5	62,2	39,2	80,7
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	61,5	47,3	14,2	3,3	5,7	1,4
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	243,4	237,1	6,3	13,1	28,7	0,6
<b>Xizmatlar</b>	5,1	2,4	2,7	0,3	0,3	0,3






**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR  
VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI  
(2023- yil yanvar-dekabr)**

2023- yilning yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2022- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, ichimliklar va tamaki, hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>91,0</b>	<b>98,6</b>	<b>85,7</b>
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	93,0	86,9	100,0
Ichimliklar va tamaki	158,3	154,1	2,5 m.
Nooziq-ovqatxom-ashyosi (yoqilg‘idantashqari)	80,8	65,3	95,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	2,7 m.	2,7 m.	2,7 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	198,5	57,2	2,2 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	90,7	96,2	69,9
Sanoat tovarlari	86,0	92,5	83,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	96,5	110,0	68,5
Turli xil tayyor buyumlar	121,9	123,3	85,2
Xizmatlar	42,3	30,7	64,3

## VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar- dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Singapur va Afg'oniston hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 1538,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 82,7 %ini tashkil qiladi.

import



## MEVA- SABZAVOT MAHSULOTLARI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 156,1 mln. Dollar qiymatga ega 248,4 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog' dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2022- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 3,8 %ga kamaygan, naturada– 8,6 %ga ko'paygan, Meva- sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 135,8 mln. AQSh dollariga teng 221,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 32,2 %ga ko'paygan), shuningdek 39,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 46,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 22,7 %ga ko'paygan).

2023- yil yanvar-dekabr, mln. AQSh dollari



Meva va rezavorlar  
46,3 ming tonna  
39,6 mln.  
AQSH dollari



Uzum  
26,2 ming tonna  
20,2 mln.  
AQSH dollari



Yeryon-g'oqlar  
0,5 ming tonna  
0,7 mln. AQSH  
dollari



Sabzavotlar  
175,0 ming tonna  
96,2 mln. AQSH  
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog' dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida meva- sabzavotlarning eksport hajmi 135,8 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 7,3 % ini tashkil qiladi.


## TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2023- yil yanvar- dekabr)



Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylari mobaynida import hajmi 3848,6 mln. AQSh dollarini (2022-yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (30,8 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,9 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,7 %), sanoat tovarlari (15,6 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,0%) hisobiga to'g'ri keldi.



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA  
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI  
(2023- yil yanvar-dekabr)**

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>3848,6</b>	<b>1671,4</b>	<b>2177,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	648,8	305,8	343,0	16,9	18,3	15,8
Ichimliklar va tamaki	5,6	4,9	0,7	0,1	0,4	0,1
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	566,1	452	114,1	14,8	27,0	5,2
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	249,4	243,1	6,3	6,5	14,5	0,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	101,7	75,3	26,4	2,6	4,5	1,2
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	385,6	90,6	295,0	10,0	5,4	13,5
Sanoat tovarlari	599,9	362	237,9	15,6	21,7	10,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1185,5	117,6	1067,9	30,8	7,0	49,1
Turli xil tayyor buyumlar	93,2	16,3	76,9	2,4	1,0	3,5
Boshqa tovarlar	3,5	0,5	3,1	0,1	0,0	0,1
Xizmatlar	9,3	3,3	5,9	0,2	0,2	0,3




Importning eng katta ulushi nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (14,7 %) va sanoat tovarlari (15,6 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (30,8 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,9 %) hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA  
XIZMATLAR IMPORTNING O'ZGARISH SUR'ATLARI  
(2023- yil yanvar-dekabr, % hisobida )**

Tarkibi	2022- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>108,7</b>	<b>92,1</b>	<b>126,0</b>
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	90,8	93,5	88,5
Ichimliklar va tamaki	108,2	96,9	6,0 m.
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	82,1	69,4	3,0 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	174,6	174,7	169,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	138,4	116,9	2,9 m.
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	106,3	90,3	112,5
Sanoat tovarlari	103,3	92,8	124,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	143,0	107,2	148,5
Turli xil tayyor buyumlar	71,6	76,8	70,6
Boshqa tovarlar	70,8	13,0	2,2 m.
Xizmatlar	101,9	109,1	98,2

## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-dekabr)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Xitoy, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Braziliya, Turkiya, Italiya va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 3164,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 82,2 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(71) 202-86-59